

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

“Kiritdi”

**Kamoliddin Behzod
nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti rektori**

A.Sh. Mirzoraximov

2024-y

“Kelishildi”

**O'zbekiston
Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**

2024-y

**“Tasdiqlayman”
O'zbekiston Badiiy
akademiyasi**

2024-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari**

- | | |
|----------|---|
| 60210500 | Rangtasvir: dastgohli |
| 60210500 | Rangtasvir: mahobatli rangtasvir |
| 60210500 | Rangtasvir: teatr-bezak rangtasviri |
| 60210500 | Rangtasvir: filmning tasviriy yechimi |
| 60210500 | Rangtasvir: mulfilm va kompyuter multiplikatsiyasi (kunduzgi) ta'lim yo'nalishlari uchun |

Toshkent – 2024-yil

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti O'quv uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2024-yil "3" 06 dagi "11" sonli majlis bayoni

- Tuzuvchi:** - **E.X.Xaitov**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Dastgohli rangtasvir kafedrası dotsenti
- Taqrizchilar:** - **I.Valixo'jayev**
O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi raisi,
O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi
- **S.A.Abdullaev**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Dastgohli rangtasvir kafedrası professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi

KIRISH

60210500-Rangtasvir: dastgohli, 60210500-Rangtasvir: mahobatli rangtasvir, 60210500-Rangtasvir: teatr-bezak rangtasviri, 60210500-Rangtasvir: filmning tasviriy yechimi, 60210500-Rangtasvir: mulfilm va kompyuter multiplikatsiyasi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo'nalishning kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar topshiriqlarini bajarish va ularni baholash mezonlari tartibini belgilaydi.

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dastur mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim sohasida islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda rangtasvir sohasi turlaridan kelib chiqib tasviriy san'atdagi kasbiy mahorat, amaliy ko'nikmalarning shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60210500-Rangtasvir: dastgohli, 60210500-Rangtasvir: mahobatli rangtasvir, 60210500-Rangtasvir: teatr-bezak rangtasviri, 60210500-Rangtasvir: filmning tasviriy yechimi, 60210500-Rangtasvir: mulfilm va kompyuter multiplikatsiyasi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradi.

“Chizmatasvir” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko'rsatmasidan namuna 1-ilovaga muvofiq, “Kompozitsiya” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko'rsatmasidan namuna 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Chizmatasvir” fanidan podium va uning tepa qismida naturada turgan odam (naturachi) va uning orqa qismida rassom mutaxassislar tomonidan maxsus fon qo'yiladi. Bunda, “Odam portreti qo'llari bilan” uslubiy fonda bo'lishi lozim. Abituriyent odam portretini qo'llari bilan chizish orqali uning tashqi ko'rinishi holatiga hamda qomatning anatomik tuzilishiga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari qomatning plastik yechimiga hamda uning xarakterlarini ochib berishi, soya-yorug' tomonlariga yengil tuslar berishi va bu bilan chizmatasvir bo'yicha ketma-ketlikka rioya etishi, ijodiy ishni bajarishda e'tibor bilan yuksak estetik did asosida to'liq tugallangan holatga yetkazishi talab qilinadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Chizmatasvir”** fanidan amaliy ishni bajarish uchun **160 daqiq**a vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

| T/r | Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari | Ball |
|-----|---|-------------------------|
| | Chizmatasvir fani bo'yicha amaliy ish | Jami 63 ball |
| | Naturaning kompozitsion joylashuvi | 7 ball |
| | Proporsiyalarni to'g'ri topilishi | 7 ball |
| | Rakurs holatining topilish darajasi | 6 ball |
| | Natura qismlarining o'zaro nisbiy joylashuvi | 6 ball |
| 1. | Yorug' va soyaning ishlanishidagi mahorat darajasi | 6 ball |
| | Plastik anatomiyaning odam qomatiga mosligi | 6 ball |
| | Tasvirning naturaga o'xshashligi va xarakterli xususiyatning topilganligi | 6 ball |
| | Naturaning perspektiv (fazoviy) holati | 6 ball |
| | Naturaning atrof muhit bilan bog'langanligi | 6 ball |
| | Chizmatasvirning tugallanish darajasi | 7 ball |

“Kompozitsiya” fanidan abituriyent berilgan mavzu bo'yicha topshiriqni moybo'yoq, akvarel, guash, tempra, akrillardan birida ishlashni erkin tanlaydi. Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g'oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va obrazlar plastik yechimini topilganligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g'oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g'oya – fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda “**Kompozitsiya**” fanidan berilgan mavzu uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

| T/r | Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari | Ball |
|-----|---|-------------------------|
| | Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish | Jami 93 ball |
| | Kompozitsiyaning formatga nisbatan to'g'ri joylashtirilganligi | 5 ball |
| | Kompozitsiyaning mavzu jihatidan original topilganligi | 5 ball |
| 1. | Asarning kompozitsion g'oyaviy mazmuni ochib berilganligi | 5 ball |
| | Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni va mohiyatining mutaxassislikka xosligi | 5 ball |
| | Badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanilganligi | 5 ball |
| | Asar qahramonining obrazi plastik yechim orqali topilganligi | 5 ball |
| | Tasvirning ta'lim yo'nalishiga mosligi | 5 ball |

| | |
|---|--------|
| Kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi | 5 ball |
| Kompozitsiyada yorug'lik va soyaning ishlanishidagi mahorati | 5 ball |
| Kompozitsiyaning perspektiv (fazoviy) holati | 5 ball |
| Kompozitsiyada ranglar bilan ishlash jarayonida yorug'lik va soyalarning bir-biriga mutanosibligi | 5 ball |
| Kompozitsiyada to'q va och ranglarning to'g'ri topilganlik darajasi | 5 ball |
| Kompozitsiyada issiq va sovuq ranglarning uyg'unlashuv darajasi | 5 ball |
| Kompozitsiyada ranglar orqali atrof muhit bilan uzviy bog'langanlik darajasi | 5 ball |
| Kompozitsiyada ranglarning o'zaro mutanosiblik va yaxlitlik darajasi | 5 ball |
| Kompozitsiyada ranglarning perspektivadan o'zgarish holati | 5 ball |
| Kompozitsiyada rakurs va fazoviy holatning ishlanish darajasi | 5 ball |
| Mavzuning mazmuni va ma'nosi ochib berilganligi hamda ranglar uyg'unligi | 4 ball |
| Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi | 4 ball |

II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibi

60210500-Rangtasvir: dastgohli, 60210500-Rangtasvir: mahobatli rangtasvir, 60210500-Rangtasvir: teatr-bezak rangtasviri, 60210500-Rangtasvir: filmning tasviriy yechimi, 60210500-Rangtasvir: mulfilm va kompyuter multiplikatsiyasi ta'lim yo'nalishlarining kunduzgi ta'lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ajratilgan vaqt davomida Chizmatasvir fanidan qo'yilgan uslubiy fondagi topshiriqni, Kompozitsiya fanidan berilgan mavzu asosidagi vazifani bajaradi.

Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi. Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi




Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalariga ko'ra, natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida institut qabul komissiyasining Apellyatsiya kengashiga murojaat qilishlari mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to'g'risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va
baholash mezoniga
1-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: “Portret qo‘llari bilan”



Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va
baholash mezoniga
2-ilova

**“Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: Berilgan mavzu



